

Единый портал корпоративной информации

Объявления

Xalq Banki

Объявление

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI"

AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI CHAQIRISH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Kuzatuv kengashi, 2023-yil 19-aprel kuni soat 10:30 da Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 46 uy, manzilida joylashgan bankning Bosh ofisida bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining 2023-2025 yillar uchun rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;
2. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
3. Bankning 2023-yil uchun Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi (KPI)ni tasdiqlash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan organ nomi: **Bank Kuzatuv kengashi.**

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar berish uchun bank aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasi: **2023-yil 23-mart.**

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bank aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasi: **2023-yil 13-aprel.**

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishida ko'riladigan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni quyidagi manzilda tanishish mumkin:

100096, Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 46 uy, bankning Bosh ofisi.

Bankning elektron pochta manzili: info@xb.uz.

Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun telefon: 78-120-17-87.

Bank Kuzatuv kengashi

25.03.2023

Дата: 03.03.2026